



FUQAROLARNING MEHNAT QILISH SOHASIDAGI XUQUQIY ASOSLAR

Axundjanova Muxabbat Lazizovna

Toshkent shahar yuridik texnikum

"Maxsus fanlar" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Mehnat huquqi, bandlik, ish haqi, mehnat sharoitlari, kasaba uyushmalari va ishlab chiqarish munosabatlari kabi masalalarga nisbatan qo'llaniladigan turli xil qonunlar to'plami. Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonda mehnat qonunchiligi bòyicha olib borilayotgan islohotlar haqida batafsil bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: mehnat huquqi, mehnatga munosib haq to'lash, Mehnat kodeksi, demokratiya, huquqiy davlat, Konstitutsiya va h.k.

Kirish. Yigirma sakkiz yildirki, ko'p millatli O'zbekiston o'zining Asosiy Qonuni — Konstitutsiyasi himoyasida yashab kelmoqda. Chunki uning barcha moddalarida inson va fuqarolarning manfaatlarini himoya qilish, hayotini yaxshilash, xavfsizligini ta'minlash yo'lida har birimizning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy huquqlarimiz aniq mustahkamlab qo'yilgan.

Masalan, Konstitutsiyamizning 42-moddasida har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanish huquqiga ega ekanligi, sud hukmi bilan tayinlangan jazoni o'tash tartibidan yoki qonunda ko'rsatilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanishi alohida belgilangan.



Aslida ham, har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash va adolatli mehnat sharoitlarida ishlashga to'la haqli. Fuqarolarning ushbu konstitutsiyaviy huquqlari amaldagi mehnat qonunchiligida ham o'z ifodasini topgan. Xususan, Mehnat kodeksining 5-moddasiga binoan, majburiy mehnat, ya'ni biron-bir jazoni qo'llash bilan tahdid qilish orqali (shu jumladan mehnat intizomini saqlash vositasi tariqasida) ish bajarishga majburlash taqiqlanadi.

Shu jihatdan so'nggi yillarda Asosiy Qonunimizda belgilangan majburiy mehnatni taqiqlash to'g'risidagi qoidaga qat'iy amal qilishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirildi. Ta'sirchan parlament va jamoatchilik nazorati o'rnatilib, fuqarolarning kafolatlangan mehnat huquqlarini ta'minlash masalalari bo'yicha parlament komissiyasi tuzildi.

Hozirgi kunda komissiya inson huquqlari sohasida mamlakatning xalqaro majburiyatlariga rioya etilishiga hamda inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston milliy strategiyasini amalga oshirishga ko'maklashishda asosiy tayanch vazifasini o'tamoqda. Ushbu muhim masala qattiq nazoratga olingani sababli joriy yilda bunday salbiy holatlar aniqlanmadi. Bu esa xalqaro tashkilotlar, keng jamoatchilik tomonidan e'tirof etilayotir.

Konstitutsiya – davlatni davlat, millatni millat sifatida tanitadigan qomusnomadir. Zero, uning har bir moddasida milliy va umuminsoniy qadriyatlar, xalqimiz manfaatlari aks etgan. Shu sababli u mustaqil davlatimizning Asosiy Qonuni sifatida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari, demokratik islohotlar va yangilanishlarga mustahkam huquqiy zamin sifatida xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda barcha jabhalarda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilayotgani, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va harbiy salohiyatimiz yuksalib, fuqarolarimizning dunyoqarashi tobora o'sib borayotgani ham shak-shubhasiz, Bosh qomusimizning



hayotbaxsh kuch-qudrati natijasidir. Negaki, u hech kimga qaram bo‘lmasdan, erkin va ozod, tinch va osoyishta, farovon yashashning qonuniy kafolati bo‘lib kelmoqda.

Binobarin, Asosiy Qonunimiz Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va boshqa asosiy xalqaro hujjatlar talablariga to‘la mos holda, inson va fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini kafolatlab berdi. Insonning ma’naviy kamol topishi va har tomonlama uyg‘un rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

O‘tgan davr mobaynida Konstitutsiyamizda muhrlab qo‘yilgan tamoyil va qoidalar negizida yurtimizda milliy qonunchilik tizimi barpo etildi. Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va harbiy salohiyati yuksalishiga, hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilgan samarali islohotlarga asos bo‘ldi. Uning fuqarolarimiz huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, ularning siyosiy faolligini oshirishda ham o‘rni va ahamiyati beqiyosdir.

Dunyodagi “qonun ustuvorligi indeksi”yuqori darajada bo‘lgan 30 ta davlat qatoriga O‘zbekistonning kirishini ta’minlash va aholining adolatli sudlovga ishonchini oshirish – partiyamiz saylovoldi dasturida ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Biz insonning fundamental huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini samarali himoyalash tarafdorimiz. Asosiy maqsadimiz ham – O‘zbekistonda inson hayoti va faoliyatining barcha sohalarida majburiy mehnatning oldini olish hamda unga to‘liq barham berishga doir aniq chora-tadbirlar amalga oshirishdan iboratdir.

Konstitutsiyamiz xalqimizning orzu-umidlari, irodasini o‘zida jamlagan qomusiy hujjat hisoblanadi. U bashariyat hayotida ilk bor insonning ozod va erkin yashash, mulkka ega bo‘lish, ta’lim olish, mehnat qilish kabi huquqlarini, so‘z hamda e’tiqod erkinliklarini oliy qadriyat darajasiga ko‘tardi. Shaxs, jamiyat va davlat o‘rtasidagi munosabatlarda o‘zaro huquq va majburiyatlar hamda ularning kafolatlarini aniq-ravshan belgilab berdi.



Xulosa qilib aytganda, Bosh qomusimizda inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadriyat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat sifatida mujassam etilgani bejiz emas. Zotan, u jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, yurtimiz fuqarolari tengligining kafolatlanishini e'tirof etdi va zamonaviy demokratik taraqqiyot uchun zamin yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tursunov Y., «Mehnat huquqi», O'quv qo'llanmasi. T., «Mo'lya», 1999 yil.
2. Tursunov Y., «Mehnat huquqi», Darslik. T., «Mo'lya», 2002 yil.
3. Inoyatov A.A. "O'zbekiston Respublikasining mehnat huquqi". T., "Iqtisodiyot va huquq dunyosi" nashriyot uyi, 2002 yil.
4. Tursunov Y., Usmanova M. Mehnat huquqi. O'quv qo'llanma. T., "Moliya", 2001 yil.
5. Gasanov M. Yu., Sokolov E. A. «O'zbekiston Respublikasida mehnat shartnomasi (kontrakt)», T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyoti, birinchi va ikkinchi kitoblar, 1996 yil.
6. Gasanov M. Yu., Sokolov E. A. O'zbekiston Respublikasining yangi mehnat qonunchiligi. T., 2000 yil.